

SADOQAT RO'ZIYEVA

MARVARID

SHE'RLAR VA HIKOYALAR

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2008

Sadoqat bir she'rida "Osmonga parvozim qanot she'riyat, shu murg'ak jonimga najot she'riyat" deb yozadi. Yosh shoiraning qalbiga umid baxsh etgan, uni ijodga ilhomlantirgan she'riyat olami bu gal ham yana bir iste'dod egasini qaytadan kashf etdi.

Sadoqatning yozganlarida samimiyat mujassam. U ana shu samimiyati bilan ham boshqalarni takrorlamaydi, boshqalardek fikrlamaydi.

Aziz kitobxon! Ushbu mo'jazgina kitobni o'qiganingizdan keyin umidli, dilkash shoirani qalbingizga yaqin olishingizga ishonchimiz komil.

ISBN 978-9943-08-357-8

© Sadoqat Ro'ziyeva. «Marvarid». «Yangi asr avlodi», 2008-yil

YORUG‘LIK

*“Qonimdan qarz olib ko‘kargan qulim,
Bugun tikonlaring botdi qalbinga”*,

degan satrlarni bot-bot takrorlab turaman, olamlar ko‘rib, odamlarni tanib albatta!..

Mening-ku, yoshim ellikdan o‘tib, bu satrlarga ishim tushyapti, ammo she‘r muallifi, maktab o‘quvchisi Sadoqat Ro‘ziyevani nima majbur qildiykin, bunaqa gaplarni yozishga?

Uning “Qalam jonlanganda”, “Vatanimni kuylayman” nomli to‘plamlarini varaqlab, ”shoir” degan she‘riga ko‘zim tushdi:

*“Qalbiga dardini uymaydi shoir,
Xalqining dardini kuylaydi shoir”*.

Ha, ijodkorning o‘zi qon yutsa ham, sizga gul tutishini, goho samoda, goho saboda ishi bo‘lib, yoningizdan mungli o‘tishini his qilyapti, bu qizaloq.

O‘zi esa ming istihola orzu va ilinjlari bilan she‘riyat ostonasida sizga boqib turibdi, mustaqil mamlakatning erkin va ozod qizi-da, u!

O‘qishni uddalab, do‘st-dugonalari faxriga aylanishga ham unnalgan Sadoqat aziz yurtiga, qadrdon qimmatdonlariga o‘z mehru-muhabbatini she‘rlarida namoyon etmoqda.

Bu namoyonlik qo‘lingizdagi uchinchi kitobchasida ham bayon etilgan ekan, men uning mehribon onaga, zukko ustozlarga sadoqatini, so‘zga, yurakka e‘tiqodini his qildim. Bunday sadoqatli e‘tiqod Sadoqatning ko‘ngliga yorug‘lik ulashaveradi, o‘zi esa tanlagan yo‘lidan aslo og‘ishmaydi, deb umid qilaman.

*Umida ABDUAZIMOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi, shoira*

XUMO SOHIBASI

Haqiqiy shoirning qalbida hamisha tug‘yon hukmron bo‘lib, unda baxt izlagan, baxt istagan semurg‘ yanglig‘ qush sayrab turarmish. Ko‘pgina shoirlardagi kabi o‘sha qush ijod Gulshaniga endigina kirib kelgan, birinchi qadamidanoq ko‘pchilikning nazariga tushib, yozganlari o‘quvchilarining dillariga yod bo‘lgan Sadoqatning ham qalbida charx urib sayramoqda.

Sadoqat hali yosh, chekka bir qishloqlik bo‘lishiga qaramay ko‘plab muxlis orttirdi. Uning yuragida Vatanni kuylash, o‘z xalqining muborak ishlarini dunyoga tarannum etishdek vulqon yetilib turibdi.

Men Sadoqatning she‘rlarida teranlikka, go‘zallikka intilish istagi yoshlikning musaffo tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashib ajib bir jozibador ifoda hosil etayotganini sezdim.

Uning eng katta yutug‘i esa o‘quvchini o‘zining to‘g‘ri, haqqoniy fikrlarini go‘zal kechirimlar, ajoyib o‘xshatishlar, undov so‘zlar bilan bezay olishidadir.

Ushbu yangi to‘plamdagi qalb satrlari Sizning yuragingizga ham muhrlanib qolsa ajab emas.

*Shukur SODIQ,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi*

O‘ZBEKISTONIM

Allohning nazari tushgan eldir bu,
Mehri daryolardek toshgan eldir bu,
Yaxshilik qilay deb shoshgan eldir bu,
Yaxshilar tilagi O‘zbekistonim.

Navoiy, Boburlar kuylagan o‘lka,
Qadri samolarga bo‘ylagan o‘lka,
Tangrim ham o‘zgacha siylagan o‘lka,
Jannatning bo‘lagi O‘zbekistonim.

Dunyolar ichinda o‘zi bir dunyo,
Qadim minorlari taratar ziyo,
Toshkent-u Samarqand qadim Buxoro,
Osiyo yuragi O‘zbekistonim.

Ko‘ksida faxriyu g‘ururi bor el,
Bag‘rida bahorning sururi bor el,
Alpomish, To‘maris, Temuri bor el,
Mardlarning Vatani O‘zbekistonim.

HAYOT SAHNASI

Buyuk dramaturg – Yaratganning o‘zi
Sh.Boshbekov

– Hayot bu nimadir, yashamoq nima,
Bularda yashirin qanday falsafa,
Inson qanday qilib ulg‘ayib borar,
Bugun shod bo‘lganlar, ertaga xafa?

– Hayot bu sahnadir, kulguli, g‘amli,
Rang-barang voqea, yechim va tugun,
Kecha hammasidan ko‘ngil edi to‘q,
Nimadir yetishmay qoldi-ku bugun.

Buyuk dramaturg – o‘zi Allohim,
To‘kis asar yozgan yolg‘iz panohim,
Bu buyuk sahnada barcha ijrochi,
Men ham zarradirman rollarim muhim.

Chaqaloq, qizaloq, dono muallim,
Rollarim ko‘payib borar kunma-kun,
Unitilmas obraz “ona” rolini,
Ishonib topshirdi dramaturg bir kun.

Hayot sahnasida go‘zal manzara:
Uy to‘rida beshik, yig‘lar chaqaloq,
Ota shod kuladi ochadi quchoq,
Ona ko‘ngli kular, kular chaqaloq.

... Soch oqarib qolar, yuzlarda ajin,
Qarilik soyasin soladi sekin,
Ona mehri tinmay ko‘rsatar kuchin,
Endi aktyorga ham ishonmoq mumkin.

Izlanib, hayotni o‘rganib, chopib,
Kamolot, yetuklik, mahorat topib.
Goh pahbar, goh shoir rollarin oldim,
Gohi do‘st, gohida raqib nom oldim.

Hayot sahnasida o‘ynamoq og‘ir,
Senariy meni ayladi sag‘ir,
Goh g‘arib, goh miskin, gohi kambag‘al,
Gohi musofir-u gohi darbadar.

Hayot kitobini o‘qib va uqib,
Savob-u gunohning o‘lchovin oldim,
Munkayib, bukilib, o‘ylarga tolib,
Oxiri faylasuf rolini oldim.

Bu yorug‘ dunyoda neki ko‘rgulik,
Qismat yozuvini ko‘rdi bu boshim,
Qismat sinovidan o‘tdim birma-bir,
Og‘zimda oshimu ko‘zimda yoshim.

Sen ham ulg‘ayarsan kunlar o‘tadi,
Hayot saboqlarin o‘qiysan albat,
Bu buyuk sahnada adashma bolam,
O‘z o‘rnida o‘yna rollaring faqat.

HAZRATI INSON

Olamning sarvari, yaralgan hilqat,
Muhammad ummati, sen koni hikmat,
Iymonning uyini tark etma faqat,
Allohga suyuksan – Hazrati inson,
Naqadar buyuksan – Hazrati inson.

Muqaddas ostonang Vatandir, Vatan,
Bir siqim tuproqqa sadqa bo'lsin tan,
Bir sado yangraydi olis-yaqindan,
Allohga suyuksan – Hazrati inson,
Naqadar buyuksan – Hazrati inson.

Boshingdan-da baland erur vijdonging,
Arshga nurli narvon – toza iymoning,
Sabrila yengasan g'amin dunyoning,
Allohga suyuksan – Hazrati inson,
Naqadar buyuksan – Hazrati inson.

Tonggi ibodating poklar dunyoni,
Mehru saxovating tutar samoni,
Ezgulikla o'tsin umring har oni,
Allohga suyuksan – Hazrati inson,
Naqadar buyuksan – Hazrati inson.

O'tli nigohingda porlar muhabbat,
Alloh muhabbati senga oliy baxt,
Ikki dunyo ichra saodatli taxt,
O'ziga suyak bo'l Hazrati inson,
Hamisha buyuk bo'l Hazrati inson.

EY DO‘ST

Og‘zim qonashini kutmagin, ey do‘st,
Baribir sir bermay ichga yutaman.
Mening yiqilmog‘im kutsang sen agar,
Sening faqat yaxshi kuning kutaman.

Qo‘rqsam ham qo‘rqaman odil Xudodan,
Qo‘rqaman do‘stimdan bevaqt judodan.
Ayрилиq dog‘idan qo‘rqaman, ey do‘st,
Xiyonat cho‘gidan qo‘rqaman, ey do‘st.

Davronning gardishi siyladi seni,
Baxt qushi saralab tanladi seni.
Hech ham tugamaydi dunyo tashvishi,
Toyib ketishingdan qo‘rqaman, ey do‘st.

Allohdan so‘radim, to‘kdim ko‘z yoshim,
Menchun bugun tun, lek chiqar quyoshim.
O‘sha kun g‘arazing yashira ol do‘st,
Dili, tili boshqa aziz qurdoshim.

Bo‘m-bo‘sh yuragingdan iymonga joy ber,
Seni ta‘qib qilgan shaytonga xay ber.
Pokiza o‘tmishga nazar sol bir-bir,
Manqurt bo‘lishingdan qo‘rqaman, ey do‘st.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/1853> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1853> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1853>